

ITALYAN TILIDA GASTRONOMIYAGA OID MAQOLLARNING ETIMOLOGIK TAVSIFI

Keldiyorova Sevinch

O‘zDJTU, Tarjimonlik fakulteti, 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: B.Ergashova

Annotatsiya. Ushbu maqola italyan tilida gastronomiyaga oid ko‘p qo‘llaniladigan maqollar va ularning etimologiyasini o‘rganishga bag‘ishlangan. Italiyan oshxonasi nafaqat taomlari, balki u bilan bog‘liq til va madaniyat orqali ham boy va xilma-xildir. Maqolada mashhur italyan maqollari, ularning kelib chiqishi hamda ular orqali Italiya jamiyatidagi qadriyatlar va dunyoqarash qanday ifodalanishi tahlil qilinadi. Ushbu maqola gastronomik maqollarning italyan tilidagi o‘rnini chuqurroq tushunish, ularning tarixiy ildizlari va kundalik nutqda qanday qo‘llanilishiga oid bilimni kengaytirishga xizmat qiladi

Kalit so‘zlar: maqol, gastronomiya, etimologiya, oziq-ovqat madaniyati, tarix, an‘analar, hayot tarzi, oshpazlik

Gastronomiya- bu oziq ovqat va ichimliklarni tayyorlash, taqdim etish va iste‘mol qilish san‘ati va ilmi hisoblanadi. U nafaqat ovqatlar va ichimliklarning tayyorlanish jarayoni, balki oziq-ovqat madaniyati, tarixiy an‘analar, ijtimoiy munosabatlar va iqtisodiy jihatlarni ham o‘z ichiga oladi. Lug‘atda bu so‘z quyidagicha ta‘riflanadi: Gastronomiya (yunoncha: gastro- oshqozon, nomos-qonun), birinchi ma‘nosi pazandalik san‘ati, shinavandlik bo‘lsa, ikkinchisi oziq-ovqat mollarining umumiy nomi. Italiya gastronomiyasi- bu boy, xilma-xil va o‘ziga xos taomlar va an‘analar bilan to‘lgan hamda dunyo bo‘ylab mashhur bo‘lgan ovqatlanish madaniyatlaridan biridir. Italiya gastronomiyasi nafaqat ovqat tayyorlashni, balki oilaviy va ijtimoiy munosabatlarni ham o‘z ichiga oladi. Italiyaliklar odatda katta oilaviy yeg‘inlarni afzal ko‘radilar, bu esa o‘zaro muloqot va suhbatga zamin yaratadi.

Italyanlar uchun stol atrofida yeg‘ilishni va turli mavzularda bahs-munozaralar qilishni ajratib bo‘lmaydi. Italiyan tili juda boy tillardan biri bo‘lib, buni biz xalq og‘zaki ijodida ishlatiladigan maqollardan hamda frazeologizmlardan bilishimiz mumkin. Italiyada maqollar xalq og‘zaki ijodining ajralmas qismidir, ular kundalik hayotda tez-tez uchraydi. Bu maqollar: xalq donishmandligi, tarixiy tajriba va madaniy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan bo‘lib, ularni italyanlar ijtimoiy va shaxsiy hayotda faol qo‘llaydilar. Maqollar orqali italyanlar murakkab fikrlarni soddalashtiradi, o‘z fikrlarini ifodali va tushunarli qilib yetkazadi, va hatto ba‘zi vaziyatlarda hazil-mutoyibalar bilan suhbatga zavq qo‘shadilar.

Maqollar Italiya madaniyatida chuqur ildiz otgan bo‘lib, ular sevgi, ish, do‘stlik, tabiat, inson xulq-atvori va hatto gastronomiyada ham o‘z o‘rniga egadir. Ovqatlanish madaniyatiga oid bo‘lgan maqollarni va ularning etimologiyasini o‘rganish bizga taomlar va ovqatlanish madaniyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Quyida Italiyanlar orasida mashhur bo‘lgan gastronomik maqollar va ularning etimologiyasi bilan tanishib o‘tamiz:



"Una mela al giorno leva il medico di turno" maqolining ma'nosi o'zbek tilimizdagi "Issiq ovqat-tanga rohat" maqoliga mantiqan mos keladi. Ushbu ibora sog'lom ovqatlanish va, xususan, meva iste'molining ahamiyatini ta'kidlaydi, ya'ni har kuni bir olma yeyish sog'likni yaxshilashga yordam berishi va shifokorga borish zaruriyatini kamaytirishi mumkinligini anglatadi. Ushbu maqolning aniq kelib chiqishi ma'lum bo'lmasa-da, u XX asrda keng tarqalgan. Olma, nafaqat sog'lom ovqat sifatida, balki yaxshi turmush tarzining ramzi sifatida ham qabul qilinadi. Ushbu maqol sog'lom ovqatlanish orqali kasalliklarning oldini olish mumkinligini ko'rsatadi. Boshqa tillarda ham ushbu maqolning o'xshash variantlari mavjud. Masalan, ingliz tilidagi "An apple a day keeps the doctor away" degan maqol mavjud.

"Fagioli e pasta, per un pranzo e quanto basta" maqoli "Non ham non, ushoq ham non" maqolining ma'nosiga to'g'ri keladi. Bu ibora oddiy, lekin to'yimli taomlardan iborat bo'lgan ovqatni italiyaliklar uchun ahamiyatini ta'kidlaydi. Etimologiyasi: Loviya va makaron italyan oshxonasining muhim va mashhur ingredientlaridir. Ushbu taomlar tarixan O'rta yer dengizi mamlakatlarida keng tarqalgan bo'lib, oddiy va to'yimli ovqat sifatida tanilgan. Ushbu maqol, ovqat tayyorlashda murakkablik yoki xarajatlar kerak emas. Oddiy ingredientlar ozuqa va lazzat uchun etarli bo'lishi mumkinligini ifoda etadi. Bu bilan shuningdek, hayotning oddiy narsalariga minnatdorchilikni ham bildirishimiz mumkin.

"Buon pane e buon vino aiutano il cammino" maqolini o'zbek tiliga "Non bor joyda jon bor" deb tarjima qilishimiz mumkin. Non va vino O'rta Yer dengizi madaniyatida, xususan, italyan oshxonasida muhim va ramziy o'ringa ega. Non, oziq-ovqatning asosiy qismi bo'lib, hayotiy ehtiyojni qondiradi, vino esa ko'pincha do'stlik, bayram va quvonch bilan bog'liqdir. Qisqa qilib aytganda Ushbu maqol, yaxshi oziq-ovqat va ichimlikning jismoniy va ruhiy salomatlikka ijobiy ta'sir ko'rsatishini bildiradi. Yaxshi non va vino iste'moli hayotdagi qiyinchiliklarni engillashtirishi, shuningdek, hayotni yanada yoqimli qilishga yordam berishi mumkinligini anglatadi hamda insonlar o'rtasida munosabatlarni mustahkamlash va hayotning go'zalligini his qilishda yaxshi ovqat va ichimlikning ahamiyatini ko'rsatadi.

"Cucina che fuma, amici che arrivano" maqoli o'zbek tilidagi "Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan" maqoliga to'g'ri keladi. Afsuski ushbu iboraning kelib chiqishi to'liq aniq emas, ammo u asosan qishloqlar va kichik jamoalardagi italyan xalq an'alariga borib taqaladi. Maqol orqali biz, eshiklar har doim ochiq bo'lgan, do'stlar va qarindoshlar iliq kutib olinadigan italiyan qishloq mentalitetini aks ettirilishini ko'rishimiz mumkin. Uylar asosan o'choq yoki yog'och o'tinli pech bilan isitilgan davrlarni anglatadi, va "tutun" taom tayyorlanayotganidan dalolat beruvchi belgi bo'lgan. Tutun chiqayotganida yoki oshxonadan yoqimli hidi taralganda, bu qo'shnilar va do'stlar uchun ovqat tayyorligi va ularni kutib olishga tayyorligini bildirgan. Sekin- astalik bilan "tutun" taklif ramziga aylandi. Hozirda uylarda bunday o'choqlardan kamroq foydalanilsa-da, maqol hanuzgacha mavjud bo'lib, italyan oshxonasining iliqligi va mehmondo'stlik ruhini aks ettiradi.

"*Chi non beve con me, peste lo colga*" maqolini olsak, uni o'zbek tiliga "*Men bilan ichmagan kimsaga balo yog'ilsin*" yoki "*Kim men bilan ichmasa, baloga qolsin*" deb tarjima qilish mumkin. Etimologiyasi o'rta asrlar yoki Uyg'onish davriga borib taqaladi, u ichimlik ichish bilan bog'liq marosimlarda ishlatilgan. O'sha davrda birga ichish (odatda spirtli ichimlik) do'stlik va samimiyat belgisi bo'lgan, va birga ichishni rad etish salbiy qabul qilingan. "Peste" (italyanchada "vabo") so'zi o'sha davrda qo'rqinchli kasallik bo'lib, bu so'z odatda yengil qarg'ishlarda qo'llangan, ammo aslida hech qanday yomon maqsadni ifodalagan. Bu maqol hozirgi kunda ham Italiyada asosan do'stona hazil sifatida qo'llaniladi.

"*L'appetito vien mangiando*" maqolini o'zbek tilida "*Ovqat ovqatga yo'l beradi*" deyishimiz mumkin. Maqol italiyaning oshxonasi va madaniyati bilan bog'liq etimologiyaga ega. Bu ham yuqoridagi xalq maqollari kabi qishloq joylarida vujudga kelgan deya olamiz. Ushbu maqol XVII va XVIII asrlarda paydo bo'lgan deb taxmin qilinadi, bu davrlardan boshlab oshpazlik va ovqat haqida fikrlar adabiyotda va xalq madaniyatida ko'proq ahamiyatga ega bo'la boshlagan. "*L'appetito vien mangiando*" degan fikr tug'ilib avloddan avlodga og'zaki nutqda o'tib kelgan. Hozirgi kunda, bu maqol ko'pincha norasmiy kontekstlarda qo'llanilib, ovqatlanish jarayoni ishtahani yanada oshirishini ta'kidlaydi.

Ushbu maqollardan Italiya gastronomiyasi o'z an'analari va madaniyatlari bilan boyligini ko'rishimiz mumkin. Maqollar oziq-ovqat va ovqatlanish bilan bog'liq qadriyatlar, o'gitlar va fikrlarni ifoda etishda boshqa tillardagi kabi muhim rol o'ynaydi. Ular faqatgina xalq donishmandligini aks ettiribgina qolmay, balki Italiyada oziq-ovqat, madaniyat va aholi o'rtasidagi o'zaro chuqur aloqani ham ko'rsatadi. Ko'rinib turibdiki, Italiya gastronomiyasi va maqollar o'rtasidagi bog'liqlik chuqur madaniy merosni aks ettiradi. Ushbu maqollar nafaqat oziq-ovqatni qadrlashni, balki ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash va hayotdan rohatlanishning ahamiyatini ta'kidlaydi. Oziq-ovqat faqat sog'lom va mazali taomlar tayyorlashda bo'libgina qolmay, balki birga yig'ilish, do'stlik va hayotiy quvonchlarni birgalikda baham ko'rishda ham muhim rol o'ynaydi. Har bir maqol o'z ichida italyanlarning qadriyatlarini va an'analarini aks ettiradi, bu esa avloddan avlodga o'tib, milliylikning ajralmas qismi bo'lib qolgan. Ovqatlanish bilan bog'liq bu hikmatlar, shubhasiz, xalqni birlashtiradi va hayotning har bir lahzasini yanada go'zal va mazmunli qiladi.

Xulosa qilib aytganda, maqollarning etimologiyasini tushuna olish hamda ekvivalenti bilan o'rganish barchamiz uchun juda qimmatli manba bo'lib, u nafaqat italyan-o'zbek madaniyatlarini qiyoslashni va iboralarni kontekstda to'g'ri qo'llay olishni o'rgatadi, balki, ikki xalqni ham bir-biriga yaqinlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. Moskva.: "Rus tili" nashriyoti. 1981
2. Italiano per modo di dire. Alma edizioni Gianluca Aprile. 2008
3. I 200 proverbi e modi di dire italiani piu usati. Andrea Conti. 2015
4. Dizionario dei proverbi italiani. Carlo Lapucci. 2007